



TALABA YOSHLARNI KASBGA TAYYORLASHDA QO'G'IRCHOQ TEATRINING MUHIM O'RNI

SHUKUROVA H.

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich
815-21(206)-guruh talabasi*

NE'MATOVA MADINABONU

*Ilmiy rahbar: JDPU katta o'qituvchisi
JDPU*

[https://doi.org/10.47689/STARS.
university-pp74-77](https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp74-77)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qish darsini tashkil etishda hikoya va ertaklarni sahnalashtirishda qo'g'irchoq teatrining muhim jihatlari haqida keng to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqilligimiz, qadriyat, qo'g'irchoq teatri, ruhiy-ma'naviy, litsenziya, "Risolai qo'g'irchoq", "shayton o'yin", Husan Voiz Koshifiy, drama, milodiy, dramaturg, "Zumrad va Qimmat".

Mustaqilligimiz urf-odat va an'analarimizning jamiyatning birlashtiruvchi imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish uchun keng yo'l ochdi. Kattalarga hurmat, o'zaro hamkorlik, farzandlarning taqdiri va kelajagi uchun qayg'urish, ularga g'amxo'rlik qilish hamisha oilaviy qadriyatlarning va udumlarning asosiy jihatlari bo'lib kelgan.

Qadriyat shaxs irodasi, harakat me'yori, aqli yetukligini to'ldiradi. Bu esa, o'z navbatida, burch bilan xohish o'rtasidagi tavofutlarni anglab yetishga yordam beradi. Natijada, milliy qadriyatlar, tarbiyalarning rivojlanishi, muayyan jamiyatdagi shaxs kamolotining belgisi bo'lib, ijtimoiy tadbirlarda bo'lgan munosabatda yaqqol ko'rinadi.

Ana shunday qadriyatlarni shakllantirishda qo'g'irchoq teatrining muhim o'rni bor. Qo'g'irchoq teatri haqidagi ma'lumotlar esa boshlang'ich ta'lim fakultetida "Boshlang'ich sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirish metodikasi" tanlov fani orqali o'rgatiladi. Ushbu fanda nafaqat qo'g'irchoq teatri haqida talabalarga ma'lumot berish, balki ertak, hikoya janrlarini o'qitishda amaliy jihatdan ularni tayyorlash juda katta ahamiyatga ega.

Qo'g'irchoq teatri kecha yoki bugun paydo bo'lgan san'at turi emas. Uning tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. U o'zimizning murakkab rivojlanish yo'lida ulkan voqealarga guvoh bo'ldi. O'tgan har bir davr uning taraqqiyotida o'z muhrini qoldirdi. Bu tabiiy, har qanday teatr – bu davr mahsuli. Davr qaysi mafkura, qaysi g'oyani ilgari sursa, san'atda ham shu aks ettiriladi, nimaiki qaralsa, undan voz kechishga undaydi. Biroq barcha zamonlarda qo'g'irchoq teatri o'zining xalqchil ruhini, mo'jizaviy qudratini va tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U hamisha o'zidan katta masshtabdagi voqeliklar, umuminsoniy, falsafiy g'oyalarni mujassam qilishga intilgan. Qo'g'irchoq teatri barcha davrlarda o'z aktyorlar-u sanatini saqlab

qolishga, uni tushunmaydigan insonlardan pana tutishga va avlodlarga bor jozibasi bilan yetkazishga harakat qilib kelgan. Masxarabozlar, aktyorlar, xullas, tomosha san'atining ishtirokchilari quvilgan, badarg'a qilingan, ayovsiz savalangan vaqtlarda qo'g'irchoq teatri ijodkorlari bu og'ir qismatdan omon qoldi.

Din peshvolari nazarida, qo'g'irchoq teatri yaxshilik, ruhiy-ma'naviy poklikka va itoatkorlikka chorlaydigan ijrochilarning hayot tumoriga, hozirgi zamon tili bilan aytganda, mustaqil faoliyat yuritishga huquq beradigan litsenziyaga aylandi. "Ulamo qo'g'irchoq o'yinini bir marta ko'rish uchun mumkin, deb fatvo berdi va buni quyidagicha izohlaydi: "Qo'g'irchoq bu teshikdan chiqib, bir jilva qilib, ikkinchi teshikka kiradi. Odam onadan tug'ilib, dunyoga kelib, olam ichra bir jilva qilib, oxiri go'rga kiradi. Shuning uchun bu o'yinni bir ko'rsa, ikki marta ko'rib bo'lmaydi.

Zeroki, bu shayton chiqargan o'yinni ikki marta ko'rgan odam iymondan ayriladi". Biroq vaqt o'tishi bilan undagi talablarga amal qilmay, din peshvolari, amaldorlar, davlat rahbarlari, tanqid ostiga olingan. Qolaversa, og'zaki dramaturgiyaga asoslangan an'anaviy teatrdagi belgilangan talablar va qat'iy qonunlarga bo'ysunish hamisha ham oson bo'lmaydi. Shu tufayli qo'g'irchoq teatri aktyorlari risolasida ta'kidlangan passivlik, tarki dunyo qilish va so'fizmni emas, balki optimistlik, hayotini sevish va undan bahra olish tamoyillarini ilgari surishgan. Biz yuqorida an'anaviy teatr aktyorlarining tomoshadagi o'rni xususida to'xtaldik, uning ijrosidagi o'ziga xosliklarni belgilashga imkon qadar urinib ko'rdik. Qo'g'irchoq teatri ijrochilarining ijodiy yo'li, ruhiy-ma'naviy dunyosi va qalb kechinmalari xususida alohida to'xtalib o'tishni joiz topdik. Boisi, bu chindanam ibrat bo'larli, boy tarixga va bugungi kun aktyorlari uchun namuna bo'la oladigan katta maktabdir. Qo'g'irchoqqa jon kiritish – bu san'at. Biroq hamma davrlarda bu ijobiy qabul qilinmagan.

Biroq o'z yo'lini dadil davom ettirgan qo'g'irchoq teatri o'z sohasida falsafiy, diniy ta'lim unsurlarini birlashtira oladi. Ma'lumki, "Risolai qo'g'irchoq"da qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi xususida ajoyib bir rivoyat uchraydi. Unda bu san'at turiga "shayton o'yin" deb ta'rif berildi. Uning ijrochiligidagi mo'jizani oddiy inson o'z qo'li bilan yarata olishiga ishona olmaydi. Go'yo bu qudratga faqat sehr-jodu yordamida erishish mumkin. Ammo o'z davrining yetuk olimlari bu g'aroyib hodisaga o'zgacha talqinda munosabat bildiradi. Bu o'rinda mashhur tarixchi, olim Husayn Voiz Koshifiyning qo'g'irchoq teatri o'yini to'g'risidagi fikrlari biz uchun qimmatlidir: "Biz lavh (o'yinchilar ma'nosida – M.Q.) hangomasida hozir bo'ldim, boshqa chodir tortib va undan ikki surat tortib va undan ikki surat ko'rsatib o'tirgan shaxsni ko'rdim. U gohi erkak ovozi bilan bir surat tilida javob berar, gohi boshqa surat tilida qizning ingichka va nozik ovozi bilan javob berardi. Holatni o'zgartirmasdan so'zlarni chunon aytardiki, har xil ovozda aytilgan savol-javoblarni eshitish uchun mumkin edi. Bu hammasi chodir ichidagi kishidagi qavli (so'zi va harakati) ediki, men bunga mutavajjib bo'ldim. Agar biror kimsa, – deb yozadi fikrlarini davom ettirib, – yaxshi o'ylab ko'rsa biladiki, bu bir necha harakatsiz va bequdrat tili vaqo'li yo'q mu'shabid amali bilan go'yo notiq va mutaharlikdir". Ko'rinib turibdiki, Koshifiy qo'g'irchoq teatri san'ati tomoshabinlarini ko'p bor kuzatgan. Uning so'zlariga qarab anglash mumkinki, qo'g'irchoq teatri aktyori va uning harakat va nutq uyg'unligi borasidagi yutuqlari anchayin sezilarli bo'lgan. Qo'g'irchoqning xarakteri, jinsi va tashqi ko'rinishiga qarab alohida ovoz ohangi topilgan hamda bu tomoshabinga aniq, tushunarli va badiiy uslubda yetkazib berilgan. Qolaversa, Koshifiydek o'z zamonasining ilg'or ziyoli kishisini hayratga

sololgan ekan, demakki, o'rta asrlardagi qo'g'irchoq san'ati ijrochiligi, haqiqatan ham, yuksak saviyada bo'lgan.

Qo'g'irchoq teatri o'quvchilar uchun juda qiziqarli, sevib tomosha qilinadigan sahna asarlaridir. Shu o'rinda dramatik asarlarning o'rne va ahamiyati haqida suhbatlashsak.

Drama (yunoncha drama – harakat) badiiy adabiyotining 3 asosiy turidan biri (epos, lirika bilan bir qatorda). Drama teatrga ham taalluqli. Syujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishining o'ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qahramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo, dialog va monologlarda ifodalanadi. Drama matni ko'rishga, shuningdek, eshitishga mo'ljallanadi; sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi (mizansesenarlar qurilishi) imkoniyatlariga ham muvofiq keladi. Drama adabiy asar sifatida aktyor, rejissyor tomonidan sahnada o'z talqinini topadi. Drama tufayli teatr san'at yuzaga kelgan va u kino san'ati uchun ham asos bo'lgan.

Qo'g'irchoq teatri – teatr san'ati turi, chodir ichida yoki parda ortida yashiringan aktyor qo'g'irchoqbozlartomonidan harakatga keltirilib ko'rsatiladigan qo'g'irchoqlar tomoshasi. Qo'g'irchoqlarning turi, boshqarish tizimi va katta-kichikligi bilan bog'liq holda xilma-xil shakllari yuzaga kelgan. Milodiy an'analar, shart-sharoit, dramaturgik va sahnaviy maqsadlar ham qo'g'irchoq teatri tomoshalarining shakli va mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Inson xarakteri jamiyat hayotini yorqin va umumlashma tarzida aks ettirish, majoz, sahnaviy bo'rttirma qo'g'irchoq teatrdan satirik hamda qahramonlik yo'nalishlar qaror topishini ta'minlagan. Qo'g'irchoq teatri tabiatni ilohiylashtirish kabi marosimlarga borib taqaladi. Geradot, Ksenofont, Aristotel, Goratsiy, Avreliy va boshqalarning ma'lumotlari bo'yicha V-VI asrlardayoq qo'g'irchoq teatri paydo bo'lgan. Sharqda barcha shakllari mavjud bo'lgan, biroq shundan soya teatri keng tarqalgan. Indoneziyada XI-XII asrlarda simlar bilan boshqariladigan qo'g'irchoq tomoshalari bo'lgan. Sharqda ham qo'g'irchoq teatrining an'anaviy turlari va shakllari yashab keladi. G'arb mamlakatlarida esa XIX asrlardan boshlab xalq qo'g'irchoq teatri inqirozga uchrab, uning o'rnida yangi tipdagi, yozma drama asosida ish olib boruvchi havaskorlik va yarim professional truppalar maydonga kela boshladi. XX asr boshida Rossiyadagi xalq qo'g'irchoq teatri davr talablariga javob berolmay qoldi. Biroq uning an'analari, tajribasi yangi shakldagi qo'g'irchoq teatrining yaratilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Avval aytganimizdek, dramaning tasvir predmeti – harakat, u obyektning plastik obrazini yaratadi, drama subyekti – ijodkor shaxsi ham obyektga singdirib yuboriladi. Agar bular dramaning turga xos belgilovchi xususiyati bo'lsa, dramatik asarning qurilishi, poetik o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim xususiyat uning sahna uchun yaratilishidir. Ya'ni sahnaga mo'ljallab yozilgan asar ijroni ham ko'zda tutishi zarur bo'ladi. Shunga ko'ra, dramadagi harakat, syujet voqealari makon va zamonda cheklangan bo'ladi. Ijro vaqtiga sig'ish uchun asarning keskin konflikt asosida shiddat bilan rivojlanuvchi syujet tarzida qurilishi taqozo qilinadi. Ravshanki, bu xil syujetning rivojlanish vaqti ham chegaralangan, shu sababli ham syujet voqealari sabab-natija munosabatlari asosida konsentratsiyalanadi. Voqealar orasidagi sabab-natija munosabati esa ularning makoniy va zamoniylar jihatlaridan-da yaqin bo'lishini taqozo qiladi. Dramaturg asarni yaratish jarayonidayoq uning syujet voqealari ijro vaqtiga sig'ishi masalasida qayg'urishi darkordir. Shunga ko'ra, dramatik asarda syujet voqealarining keskin konfliktlari asosida shiddat bilan rivojlanishi zaruratga

aylandi. Bundan tashqari, dramatik asardagi syujet voqealari yuz beradigan makon ham cheklangan, voqealar sahnada shartli qayta yaratish mumkin bo'lgan makonda kechadi. Boz ustiga, harakat makoni o'zgarishlar jihatidan ham cheklangan. Ya'ni dramatik asar voqealari ko'pi bilan 4-5 joyda kechishi mumkin.

Sahnaga mo'ljallangan asarlar jamlanmasiga dramatik asarlarning barcha turlarini kiritish mumkin. Sahnaga asarlariga qo'g'irchoq teatri yaqqol misol bo'ladi. Behbudiyning "Padarkush" dramasi sahnada namoyish etiladi. Padarkush ota qotili deganidir. Bu asarda o'sha davrning ilmiy, ziyoli kishilari hamda bilimsiz, kaltafahm insonlarning farzand tarbiyasidagi o'rnini va ahamiyatini ko'rishimiz mumkin. Bilimsiz kishilar farzandini ham kitob o'qimay turib, bilim olmay turib ham boylikka ega bo'lishini aytadi, ammo bilimli, ziyoli kishilar bunday yo'l bilan uzoqqa bormasliklarini, kitob o'qimay turib hech narsaga erisholmasligini ta'kidlaydi. Oxir-oqibat ilmsiz kishi o'z bolasining jamiyatda, xalq orasida o'z o'rnini topolmasligiga, shuningdek, o'z o'limining sababchisi bo'lishiga erisha oldi, xolos. Bu bilan kaltafahm boy o'z oyog'iga o'zi bolta urib qo'ydi. Shunday ekan, sahnada ijro etiladigan asarlar bola tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega ekanligini anglashimiz mumkin. Oddiygina sahnada ijro etiladigan "Zumrad va Qimmat" qo'g'irchoq teatri shaklida namoyon bo'lganida o'quvchilar uchun juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Zumradning yaxshi xislatlarini o'zlarida aks ettirishga, Qimmatning salbiy illatlarini o'zlaridan yo'q qilishga harakat qilishadi. Sahnaga mo'ljallangan asarlar kichik yoshdagi o'quvchilar uchun juda muhim hamda ahamiyatlidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bolalar dunyosini yanada boyitish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qo'g'irchoq teatri bilan ishlash san'atini ham egallashlari yanada shu sohada mohir ustoz bo'lishlarini ta'minlaydi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adabiy tur va janrlar. Uch jildlik. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1999-yil.
 2. S. Matchonov, X. G'ulomova, T. Xolboyeva "ona tili o'qitish metodikasi" "Ishonchli hamkor". – Toshkent, 2021-yil.
- Daminov S, Ubaydullayev H, Axmedov Q, "Adabiyot o'qitish metodikasi". – Toshkent: "O'qituvchi", 1997-yil.